

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida
Intellektual haftalikni o‘tkazish to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikadagi Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida Intellektual haftalik musobaqasi (keyingi o‘rinlarda – Intellektual haftalik)ni o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Intellektual haftalik davomida “Zakovat”, “Breyn-ring”, “Shaxsiy o‘yin” va “Zakovat Quiz” intellektual o‘yinlari bo‘yicha turnirlar tashkil qilinadi.

3. Intellektual haftalikni tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha barcha tashkiliy va ijodiy ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-son qaroriga mos ravishda Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “Zakovat intellektual klub” NNT mas’ul xodimlari ishtirokidagi tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda – Tashkiliy qo‘mita) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

4. Tashkiliy qo‘mita qaroriga muvofiq Intellektual haftalikni sifatli o‘tkazish va tezkor boshqarish maqsadida Intellektual haftalik tashkiliy guruhi (keyingi o‘rinlarda – Tashkiliy guruh) shakllantiriladi. Tashkiliy guruhga:

– hakamlar, boshlovchi, apellyatsiya va hisob komissiyasi a’zolarini tasdiqlash;

– Intellektual haftalik ishtirokchilarini belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishini nazorat qilish va qoidalarni buzganlarga intizomiyl jazo choralar qo‘llash;

– oliy ta’lim muassasalarini turnirlarda va umumjamoaviy egallagan o‘rnini hisoblash;

– Intellektual haftalikni o‘tkazish jarayonida Nizomda ko‘zda tutilmagan holatlar bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilish vazifalari yuklanadi.

2-bob. Intellektual haftalik ishtirokchilari

5. Intellektual haftalikka ta’lim yo‘nalishi, sohasi, mutaxassisligidan qat’i nazar, respublikadagi barcha oliy ta’lim tashkilotlari taklif etiladi. Intellektual haftalikda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari, ularning filiallari, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarining filiallarida (keyingi o‘rinlarda – oliy ta’lim muassasalari) bakalavriat va magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalar o‘rtasida o‘tkaziladi.

6. Intellektual haftalikda ishtirok etuvchi talabalar ro‘yxati Tashkiliy guruhga oliy ta’lim muassasalari tomonidan ariza shaklida taqdim etiladi.

7. Yangi bilimdonlarni kashf qilish, oliy ta’lim muassasalarida intellektual to‘garaklar faoliyatini rivojlantirish, talabalar orasida bilim bo‘yicha seleksiya ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida ikkinchi mutaxassislik, shuningdek, ikkinchi yoki undan ko‘p marotaba bakalavr yoki magistratura bosqichida o‘qiyotgan talabalarga Intellektual haftalikda ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.

8. Intellektual haftalikda ishtirok etuvchi oliy ta’lim muassasasi arizasida faqat bir nafar professional bilimdon bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ikki va undan ortiq professional bilimdonlarning musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi. “Professional bilimdon” deganda quyidagi xususiyatlarga to‘g‘ri keladigan bilimdonlar tushuniladi:

- Toshkent shahridagi “Zakovat” intellektual klubining Professional ligasining 2024-yil yoz, kuz, qish va 2025-yilning bahorgi mavsumi ishtirokchi jamoalaridan birining a’zosi bo‘lgan talabalar;

- respublika hududlaridagi “Zakovat” intellektual klublarida 2024-yil yoz, kuz, qish va 2025-yilning bahor mavsumi “Zakovat” o‘yini Professional ligalarida 1-, 2- va 3-o‘rinni qo‘lga kiritgan jamoalardan birining a’zosi bo‘lgan talabalar;

- “Zakovat” teleko‘rsatuvining mavsumiy bahslarida (shou o‘yinlar bundan mustasno) 2025-yil bahor mavsumidan hisoblaganda oxirgi uch yil mobaynida bilimdon sifatida ishtirok etgan talabalar.

9. Har bir oliy ta’lim muassasasidan Intellektual haftalikda 7 nafar talaba va 1 nafar ishtirokchilar xavfsizligini ta’minalash maqsadida ularga doimiy hamrohlik qiluvchi oliy ta’lim muassasasining Zakovat intellektual klubi koordinatori – jami 8 nafar odam ishtirok etadi. Talabalar orasidan bir nafar sardor tayinlanadi.

10. Intellektual haftalikda har bir oliy ta’lim muassasasidan qatnashuvchi 1 nafar Zakovat intellektual klubi koordinatori quyidagi vazifalarni bajaradi:

- oliy ta’lim muassasasi terma jamoasiga rahbarlik qilish;
- oliy ta’lim muassasasi terma jamoasini Intellektual haftalikka kelib-ketishini tashkillashtirish;

- Intellektual haftalik davomida o‘tkaziluvchi musobaqlarda Oliy ta’lim muassasasi terma jamoasidan qaysi o‘yinchilarni qatnashishini yoki zaxiraga olinishini belgilash;

- Intellektual haftalik davomida oliy ta’lim muassasasi terma jamoasini belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishlarini nazorat qilish;

- Intellektual haftalik davomida tashkilotchilar bilan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish.

11. Intellektual haftalikda ishtirok etish uchun ariza “Zakovat intellektual klubi” NNT nomiga oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan imzolangan va muhr

bilan tasdiqlangan holda elektron shaklda (PDF formatida) [**haftalik@zakovat.tv**](mailto:haftalik@zakovat.tv) **pochta manziliga** yuborilishi lozim. Arizada oliv ta'lim muassasasidan Intellektual haftalikda ishtirok etuvchi talabalarning F.I.O., qaysi bosqichda ta'lim olayotgani to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi va ushbu talabalarni oliv ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma ilova qilinishi lozim. Bundan tashqari terma jamoa [**zakovatklubi.uz**](http://zakovatklubi.uz) platformasidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishi kerak (jamoa murabbiyi bundan mustasno).

12. Oliy ta'lim muassasasi jamoasi tarkibiga kiritilgan talabalarning haqiqatdan ayni shu oliv ta'lim muassasasida tahsil olishi hamda ushbu Nizomning 7-8-bandlari qanoatlantirishi oliv ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan kafolatlanishi lozim. Agar jamoa tarkibiga kiritilgan ishtirokchi ushbu oliv ta'lim muassasasi talabasi emasligi va ushbu Nizomning 7-8-bandlari talablariga mos kelmasligi ma'lum bo'lsa, ushbu jamoa turnirdan chetlatiladi.

13. Oliy ta'lim muassasasi jamoasi a'zolari talabalik guvohnomasini (yoki uning o'rmini bosuvchi boshqa hujjatni) turnir tashkilotchilariga ko'rsatgandan so'ng turnirda ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

14. Tashkiliy guruh ruxsatisiz ishtirokchilar turnirda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Intellektual haftalikning hududiy saralash bosqichini o'tkazish tartibi

15. Intellektual haftalikda qatnashish istagini bildirgan oliv ta'lim tashkilotlari soni 50 nafardan oshgan taqdirda Intellektual haftalikning hududiy saralash bosqichi tashkil qilinishi mumkin.

16. Hududlardagi saralash o'yinlari faqat "Zakovat" intellektual o'yini bo'yicha o'tkaziladi.

17. Hududlardagi saralash o'yinlarida har bir ta'lim muassasasi nomidan 1 ta jamoa ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

18. "Zakovat" intellektual o'yini har bir 12 ta savoldan, jami 36 ta savoldan iborat 3 ta turda o'tkaziladi.

19. Har bir hududdagi oliv ta'lim muassasalaridan kelib tushgan arizalar sonidan kelib chiqqan holda hududiy saralash bosqichidan Respublika bosqichiga yo'l oladigan oliv ta'lim muassasalari soni (keyingi o'rnlarda – kvota) Turnir tashkiliy qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

20. Saralash o'yinida eng ko'p ball jamg'argan jamoalar hududiy saralash g'oliblari deb topiladi va Intellektual haftalikning Respublika bosqichiga yo'l oladi. Agar kvotaga ega bo'lish uchun da'vogar jamoalar soni ikki va undan ko'p bo'lsa, ushbu jamoalar o'rtasida bitta g'olib aniqlangunicha qo'shimcha saralash o'yini o'tkaziladi.

21. Ushbu tartibda ko‘zda tutilmagan holatlar aniqlansa Intellektual haftalikni o‘tkazish tartibi hamda “Zakovat intellektual o‘yini kodeksi”ga muvofiq Tashkiliy guruh qarori bilan hal qilinadi.

4-bob. Intellektual haftalik g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash

22. Intellektual haftalik Respublika bosqichi “Zakovat” o‘yinida g‘olib va sovrindor bo‘lgan jamoalarga mos ravishda:

1-o‘rin 50 mln so‘m;

2-o‘rin 30 mln so‘m;

3-o‘rin 15 mln so‘m topshiriladi.

“Breyn-ring” o‘yinida g‘olib va sovrindor bo‘lgan jamoalarga mos ravishda:

1-o‘rin 50 mln so‘m;

2-o‘rin 30 mln so‘m;

3-o‘rin 15 mln so‘m topshiriladi.

“Shaxsiy o‘yin”da g‘olib va sovrindor bo‘lgan bilimdonlarga mos ravishda:

1-o‘rin 20 mln so‘m;

2-o‘rin 15 mln so‘m;

3-o‘rin 10 mln so‘m topshiriladi.

5-bob. “Zakovat” intellektual o‘yinini o‘tkazish tartibi.

23. “Zakovat” intellektual o‘yini turniri “Zakovat” intellektual o‘yini Kodeksida belgilangan tartib qoidalar asosida o‘tkaziladi.

24. “Zakovat” intellektual o‘yini davomida har bir jamoada bir vaqtida 6 nafar ishtirokchi qatnashishi lozim, 1 nafar zaxira o‘yinchisiga ega bo‘lishga ruxsat beriladi. Ayrim hollarda Tashkiliy guruh ruxsati bilan 5 nafar ishtirokchi bilan ham qatnashish mumkin.

25. Jamoalarga “Zakovat” intellektual o‘yini davomida jami 48 ta savol (12 ta savoldan 4 ta tur) beriladi.

26. Har bir savolga bir balldan beriladi. Turnirda eng ko‘p ball olgan jamoa g‘olib sifatida topiladi.

27. Turnirda jamoalar tomonidan berilgan javob variantlarini hisoblash maqsadida hisob komissiyasi tashkil etiladi.

28. Hisob komissiyasi jamoa tomonidan berilgan javob variantini aniq javobga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini mustaqil baholab, jamoaga ball berish masalasini hal qiladi va turnir natijalari hisobini olib boradi.

29. Hisob komissiyasining qarori apellyatsiya natijasida o‘zgartirilishi mumkin.

30. Agar sovrinli o‘rinlar uchun ikki yoki undan ortiq jamoalar bir xil ball olsa, unda ular o‘rtasida birinchi to‘g‘ri/noto‘g‘ri javobgacha (hisobdagи birinchi

farqqacha) qo'shimcha savollar beriladi. Sovrinli o'rirlarga da'vogarlik qilmaydigan bir nechta jamoalar o'rtasida qo'shimcha o'yin o'tkazilmaydi.

6-bob. "Breyn-ring" turnirini o'tkazish tartibi

31. "Breyn-ring" o'yini turniri jamoaviy musobaqa bo'lib, unda jamoalar belgilangan vaqt ichida mantiqiy savollarga tezkorlik bilan javob berish bo'yicha musobaqalashadi. Jamoalarning maqsadi — o'yin davomida raqib jamoalarga nisbatan ko'proq savollarga to'g'ri javob berishdan iborat.

32. "Breyn-ring" turnirida ishtirok etish uchun bir jamoada 6 nafar ishtirokchi bo'lishi kerak, kamida 5 nafar ishtirokchi bo'lganda o'yinlarda ishtirok etishga ruxsat beriladi. 4 yoki undan kam ishtirokchi kelgan jamoalar o'yinlarga qo'yilmaydi.

33. "Breyn-ring" turniri saralash va asosiy bosqichdan iborat. Saralash ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Turnirning asosiy bosqichi yarim finaldan boshlanadi va turnir finali bilan yakunlanadi.

34. Saralashning birinchi bosqichida har bir guruhda 5 ta jamoa bo'ladi. Bunda jamoalarning guruhlarga bo'linishi turnir boshlanishidan oldin qur'a tashlash orqali tashkiliy guruh tomonidan aniqlanadi. Keyingi bosqichga har bir guruhdan birinchi va ikkinchi o'rinni egallagan jamoalar yo'l oladi. Saralashning birinchi bosqichida jamoalarga 10 tadan savol beriladi.

35. Saralashning ikkinchi bosqichida 20 ta jamoa 4 ta guruhga bo'lingan holda bahslashadi. Chorak final bosqichiga guruhida birinchi va ikkinchi o'rinni qo'fga kiritgan jamoalar yo'l oladi. Saralashning ikkinchi bosqichida jamoalarga 10 tadan savol beriladi.

A-guruh	B-guruh	D-guruh	E-guruh
A-1	B-1	D-1	E-1
I-1	H-1	G-1	F-1
B-2	A-2	K-1	J-1
D-2	E-2	F-2	G-2
K-2	J-2	I-2	H-2

36. Chorak final bosqichidan boshlab 2 ta jamoa bir biriga qarshi o'ynaydilar. Juftlik g'olib bo'lgan jamoa yarim finalga yo'l oladi. Chorak final bosqichida jamoalarga 10 tadan savol beriladi.

1-chorak final	2-chorak final	3-chorak final	4-chorak final
A-1	B-1	D-1	E-1
E-2	D-2	B-2	A-2

37. Yarim final bosqichida 4 ta jamoa 2 ta juftlikka birlashgan holda bellashadi. Juftlik g‘olibi yakuniy final o‘yiniga yo‘l oladi. Yarim final bosqichida jamoalarga 15 tadan savol beriladi.

1-yarim final	2-yarim final
1-chorak final g‘olibi	3-chorak final g‘olibi
2-chorak final g‘olibi	4-chorak final g‘olibi

38. Uchinchi o‘rin uchun bahsda jamoalarga 20 ta savol beriladi. Agar raund yakunida jamoalar ballari teng bo‘lib qolsa, birinchi to‘g‘ri javob bo‘lganicha qo‘sishma savollar o‘qiladi.

39. Final bahsi jamoalarning 2 ta raundda g‘alaba qozonishiga qadar davom etadi. Har bir raundda 10 tadan savol o‘qib eshittiriladi. Agar raund yakunida jamoalar ballari teng bo‘lib qolsa, birinchi to‘g‘ri javob bo‘lganicha qo‘sishma savollar o‘qiladi.

40. “Breyn-ring” turnirining saralash bosqichlaridagi jamoalarning guruhlarga bo‘linishi jadvalini Tashkiliy guruh musobaqa boshlanishidan oldin belgilab beradi.

41. Barcha bosqichlarda jamoalarga jami 10 ta savol beriladi (yarim final, uchinchi o‘rin uchun hamda final bahslari bundan mustasno).

42. Turnir maxsus elektron breyn-ring qurilmasi (keyingi o‘rinlarda – breyn-ring qurilmasi) yordamida olib boriladi. Breyn-ring qurilmasi turnirda ishtirok etayotgan jamoalarning javob berish ketma-ketligini aniqlab beradi.

43. Boshlovchi savol matnini o‘qib bo‘lgach, “vaqt ketdi” degandan so‘ng breyn-ring qurilmasida start tugmasi bosiladi. Breyn-ring qurilmasi ovoz signalini beradi. Jamoalar ovoz signalidan so‘ng o‘zlaridagi tugmachani bosishi zarur. Tugmachani birinchi bo‘lib bosgan jamoa birinchi bo‘lib javob beradi.

44. Jamoa start berilmasidan oldin tugmachani bosgan taqdirda “falstart” holati qayd etiladi va jamoa ushbu savolga javob berish imkoniyatini yo‘qotadi.

45. Boshlovchi qaysi jamoa javob berish imkoniyatiga ega ekanligini e’lon qiladi. Jamoa javob beradigan ishtirokchining ismini aytishi zarur. Faqatgina shu ishtirokchi tomonidan aytilgan versiya qabul qilinadi.

46. Boshlovchi jamoa javobi to‘g‘ri bo‘lgan taqdirda “javob to‘g‘ri” deb va jamoa javobi noto‘g‘ri bo‘lgan taqdirda “javob noto‘g‘ri” deb aytadi.

47. Boshlovchi jamoalar javobi noto‘g‘ri bo‘lsa yoki umuman javob berilmagan taqdirda to‘g‘ri javobni e’lon qiladi, hisobni eslatadi va navbatdagi savolni o‘qiydi.

48. Javobning to‘g‘riligini faqat boshlovchi aniqlaydi. Boshlovchining qarori qat’iy bo‘ladi va hech qanday shikoyat qabul qilinmaydi.

49. Saralash bosqichlarida o‘qilgan savolga ko‘pi bilan 3 ta jamoa javob berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Birinchi bo‘lib javob berish huquqiga ega jamoa noto‘g‘ri javob bergen taqdirda, qolgan jamoalarda javob berishi uchun 20 soniya vaqt beriladi. Bitta savolga 3 ta jamoa noto‘g‘ri javob bergen yoki 20 soniya vaqt ichida tugmacha bosilmagan taqdirda ball yutilmagan hisoblanadi va boshlovchi tomonidan navbatdagi savol o‘qiladi.

50. Guruh bosqichlarida (chorak finalgacha bo‘lgan bahslar) 10 ta savoldan so‘ng keyingi bosqichga o‘tish imkoniyat mavjud va bir xil ball olgan jamoalar soni bir nechta bo‘lgan taqdirda, da’vogar jamoalar orasida 2 ta peshqadam jamoa aniqlanguniga qadar qo‘srimcha savollar o‘ynaladi.

51. Agar keyingi bosqichga yo‘l olgan jamoalar aniq bo‘lsayu, lekin guruhda 1- va 2-o‘rinni egallagan jamoalar o‘zaro bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, unda ular o‘rtasida qo‘srimcha savol o‘ynalmaydi. Qaysi jamoa eng oxirgi to‘g‘ri javobni bergen bo‘lsa, o‘sha jamoa guruhda 1-o‘rinni egallagan, deb hisoblanadi.

52. Ma’lum bir savollardan so‘ng, nazariy jihatdan guruhda 1-o‘rinni olishi aniq bo‘lgan jamoa aniqlangach, mazkur jamoa keyingi savollarda ishtirok etish huquqini yo‘qotadi. Qolgan savollar boshqa jamoalar o‘rtasida o‘ynaladi.

53. Ma’lum bir savollardan so‘ng, nazariy jihatdan guruhda 1- va 2-o‘rinni olishi aniq bo‘lgan jamoalar aniqlangach, o‘yin to‘xtatiladi hamda 1- va 2-o‘rinni olgan jamoalar keyingi bosqichga yo‘l oladi.

7-bob. “Shaxsiy o‘yin” turnirini o‘tkazish tartibi

54. “Shaxsiy o‘yin” turniri individual musobaqa bo‘lib, unda ishtirokchilar belgilangan vaqt ichida mantiqiy savollarga tezkorlik bilan javob berish bo‘yicha musobaqalashadi. Ishtirokchilarning maqsadi — o‘yin davomida raqib ishtirokchilarga nisbatan ko‘proq savollarga to‘g‘ri javob berishdan iborat.

55. Har bir oliy ta’lim muassasasidan 1 nafar talaba ishtirok etadi.

56. Turnir saralash va asosiy bosqichidan iborat bo‘ladi. Turnirning asosiy bosqichi guruh bahslaridan boshlanadi va turnir finali bilan yakunlanadi.

57. Turnir saralash bosqichi yozma ko‘rinishda o‘tkaziladi.

58. Turnirning saralash bosqichida 5 ta mavzuga oid 5 tadan umumiyligi 25 ta savol beriladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun savolga oldindan belgilangan (10/ 20/ 30/ 40/ 50) ball beriladi. Har bir noto‘g‘ri javob uchun esa, savolga oldindan belgilangan ballni (-10/ -20/ -30/ -40/ -50) qarama-qarshi qiymati yoziladi. Savolga javob berilmagan taqdirda, o‘sha savolga ball berilmaydi.

59. Agar ishtirokchilar yozma saralash natijalari bo‘yicha teng miqdordagi ball to‘plasalar, eng katta nominal qiymat uchun to‘g‘ri javoblarni bergen ishtirokchi ustunlikka ega bo‘ladi. Takroriy tenglik holatida keyingi nominal qiymat bilan olingan savollar soni hisobga olinadi va shu tartibda davom etadi.

60. Turnirning asosiy bosqichi guruh, chorak, yarim final va final bosqichlardan iborat bo‘ladi.

61. Asosiy bosqichda qatnashadigan 50 nafar ishtirokchi yozma saralash natijalariga ko‘ra 5 ta ishtirokchidan iborat 10 ta (A-K) guruhga ajratiladi. Guruh bosqichida har bir guruhga 4 ta mavzudan iborat jami 20 ta savol beriladi. Bunda ishtirokchilar quyidagi jadvalga asosan guruhlarga bo‘linadi:

A	B	D	E	F	G	H	I	J	K
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
20	19	18	17	16	15	14	13	12	11
30	29	28	27	26	25	24	23	22	21
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
50	49	48	47	46	45	44	43	42	41

62. Chorak final bosqichida har bir guruhga 5 ta mavzudan iborat jami 25 ta savol beriladi. Turnirning guruh bosqichidan chorak finaliga o‘z guruhlarida birinchi va ikkinchi o‘rnlarni egallagan, jami 20 nafar ishtirokchilar yo‘l oladi. Agarda guruh va chorak final bosqichida 2-o‘rin uchun ishtirokchilar orasidagi ballar teng kelib qolsa, ular o‘rtasida qo‘srimcha mavzuda o‘yin o‘tkaziladi va uning g‘olib keyingi bosqichga yo‘l oladi. Agarda qo‘srimcha mavzuda ham ballar teng bo‘lib qolsa, boshqa mavzuda birinchi plus yoki minus qiymatli ball olingunga qadar savollarni qiymati teskari tartibda (50 balli savoldan boshlab, 10 balli savolgacha) o‘qib, davom ettiriladi.

Bunda ishtirokchilar bundan avvalgi bosqichda egallagan o‘rniga qarab quyidagi jadvalga asosan guruhlarga bo‘linadi:

A-guruh	B-guruh	D-guruh	E-guruh
A-1	B-1	D-1	E-1
I-1	H-1	G-1	F-1
B-2	A-2	K-1	J-1
D-2	E-2	F-2	G-2
K-2	J-2	I-2	H-2

63. Yarim final bosqichida har bir guruhga 8 ta mavzudan iborat jami 40 ta savol beriladi. Yarim final o‘yiniga chorak finalda guruhlarda birinchi va ikkinchi o‘rinni olgan ishtirokchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l olishadi. 2-o‘rin uchun bir nechta ishtirokchilarning ballari teng kelib qolgan taqdirda ular o‘rtasida qo‘srimcha o‘yin o‘tkaziladi va uning g‘oliblari yarim finalga yo‘l oladi. Bundan tashqari chorak finalda to‘plagan ballari bo‘yicha eng yaxshi 3-natijani ko‘rsatgan 2 ta ishtirokchi yarim final yo‘llanmasiga ega bo‘ladi. Agarda 3-natijani ko‘rsatgan ishtirokchilar orasidagi ballar teng kelib qolsa, ular o‘rtasida qo‘srimcha mavzuda o‘yin

o‘tkaziladi va uning g‘oliblari yarim finalga yo‘l oladi. Agarda qo‘srimcha mavzuda ham ballar teng bo‘lib qolsa, boshqa mavzuda birinchi plyus yoki minus qiymatli ball olingunga qadar savollarni qiymati teskari tartibda (50 balli savoldan boshlab, 10 balli savolgacha) o‘qib, davom ettiriladi.

Bunda ishtirokchilar bundan avvalgi bosqichda egallagan o‘rniga qarab quyidagi jadvalga asosan guruhlarga bo‘linadi:

1-yarim final	2-yarim final
A-1	A-2
B-2	B-1
D-1	D-2
E-2	E-1
Ikkinci 3-o‘rin	Birinchi 3-o‘rin

64. Final bosqichida har bir guruhga 10 ta mavzudan iborat jami 50 ta savol beriladi. Final o‘yiniga yarim finalda guruhlarda birinchi va ikkinchi o‘rinni olgan ishtirokchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l oladi. Bundan tashqari yarim finalda to‘plagan ballari bo‘yicha eng yaxshi 3-natijani ko‘rsatgan 1 ta ishtirokchi final yo‘llanmasiga ega bo‘ladi. Agarda 3-natijani ko‘rsatgan ishtirokchilar orasidagi ballar teng kelib qolsa, ular o‘rtasida qo‘srimcha mavzuda o‘yin o‘tkaziladi va uning g‘olibi finalga yo‘l oladi. Agarda qo‘srimcha mavzuda ham ballar teng bo‘lib qolsa, boshqa mavzuda birinchi plyus yoki minus qiymatli ball olingunga qadar savollarni qiymati teskari tartibda (50 balli savoldan boshlab, 10 balli savolgacha) o‘qib, davom ettiriladi.

65. Final o‘yinida eng ko‘p ball to‘plagan ishtirokchilar birinchi, ikkinchi va uchinchi o‘rinni oladi.

66 “Shaxsiy o‘yin” asosiy bosqich o‘yinlari maxsus elektron qurilma yordamida olib boriladi. Qurilma turnir ishtirokchilari tugmachani bosgan vaqtini aniqlaydi.

67. Har bir to‘g‘ri javob uchun, savolga oldindan belgilangan (10/ 20/ 30/ 40/ 50) ball beriladi. Har bir noto‘g‘ri javob uchun esa, savolga oldindan belgilangan ballni (-10/ -20/ -30/ -40/ -50) qarama-qarshi qiymat yoziladi. Ballar guruh o‘yinlari davomida jamlanadi, ammo bosqichdan bosqichga o‘tmaydi.

68. Har bir bosqichda birorta ham savolga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob bermagan ishtirokchi keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritmaydi.

69. Boshlovchi savolni o‘qib bo‘lgach, uning yordamchisi qurilmani start tugmasini bosadi. Ishtirokchilar qurilmani ovoz signalidan keyin, berilgan

tugmachani bosishlari kerak. Agar Ishtirokchi ovoz signaligacha tugmachani bosib yuborsa, boshlovchi savol o‘qishdan to‘xtaydi va tugmani bosgan ishtirokchi javob beradi. Tugmachani qolgan ishtirokchilarga nisbatan birinchi bo‘lib bosgan ishtirokchi, birinchi bo‘lib javob berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar ishtirokchilar 7 soniya vaqt ichida tugmachani bosmasa, ball yutilmagan bo‘ladi. Agar birinchi bo‘lib javob berish huquqiga ega bo‘lgan ishtirokchi noto‘g‘ri javob bersa, qolgan ishtirokchilarda tugmachani bosib javob berishi uchun 5 soniyadan vaqt beriladi. Bitta savolga ko‘pi bilan 3 ta jamoa javob berishi mumkin.

70. Ishtirokchi tugmachani bosgach, boshlovchi yoki uning yordamchisi, aynan qaysi ishtirokchi javob berish imkoniyatiga ega ekanligini e’lon qilishi shart. Shundan so‘ng, javob berayotgan ishtirokchi o‘z versiyasini aytishi zarur. Javob berish imkoniyati berilgan payt bilan ishtirokchi javobni berishni boshlashi orasidagi tanaffus 3 soniyadan oshib ketmasligi zarur. Agar shu vaqt ichida javob berilmassa, ishtirokchi noto‘g‘ri javob bergen bo‘ladi.

71. Javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqini faqat boshlovchi aniqlaydi. Boshlovchining qarori qat’iy bo‘ladi va hech qanday shikoyatlar qabul qilinmaydi. Har bir savol o‘qilishidan avval, boshlovchi savolning qiymatini e’lon qilishi zarur.

Berilgan javob to‘g‘ri bo‘lgan taqdirda, boshlovchi “Javob to‘g‘ri” deb aytadi (agar zaruriyati mavjud bo‘lsa o‘zidagi to‘g‘ri javob matnini o‘qiydi), ishtirokchiga berilgan ochkonи e’lon qiladi va navbatdagi savolni o‘qishga o‘tadi. Berilgan javob noto‘g‘ri bo‘lgan taqdirda, boshlovchi “Javob noto‘g‘ri” deb e’lon qiladi, ishtirokchi ega bo‘lgan ballni aytadi.

72. Ikki qismdan iborat javobning bir qismi noto‘g‘ri bo‘lsa ham, ishtirokchining javobi noto‘g‘ri hisoblanadi.

73. Ishtirokchi bergen javobga boshlovchi tomonidan aniqlashtirish so‘ralmaydi, shuningdek ishtirokchi berib bo‘lgan javobiga qo‘srimcha qila olmaydi.

9-bob. Apellyatsiya berish tartibi

74. Intellektual haftalikning “Zakovat” turnirida yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni hal qilish uchun Apellyatsiya hay’ati tashkil etiladi.

“Breyn-ring”, “Shaxsiy o‘yin” turnirlarida turnir boshlovchisining qarori qat’iy hisoblanadi va hech qanday shikoyat qabul qilinmaydi.

75. E’lon qilingan natijalar bo‘yicha tanaffuslar paytida va umumiy natijalar e’lon qilingandan so‘ng jamoa sardori Tashkiliy guruh tomonidan tasdiqlangan shaklni to‘ldirib, Apellyatsiya hay’atiga murojaat qilishi mumkin.

76. Faqat javobni to‘g‘ri deb hisoblash bo‘yicha apellyatsiya – jamoaning hisob komissiyasi ball bermagan savol(lar)ga bergen javobini hisoblash uchun qilgan murojaati qabul qilinadi.

Boshqa mazmunda berilgan apellyatsiyalar (masalan, boshqa jamoalarning javobini hisoblash yoki hisoblamaslik bo‘yicha, savol noto‘g‘riliqi bo‘yicha) qabul qilinmaydi.

77. Apellyatsiya berish uchun jamoadan 2 yoki undan ortiq vakilning AH oldiga kelishi, yaqinlashishi, apellyatsiya jarayoniga aralashishi qat’iyan man etiladi. Ushbu holatlar aniqlanishi bilan jamoa apellyatsiya berish huquqidan mahrum etiladi va shu holat yuz berganga qadar apellyatsiya natijasida hisoblangan ballari ham bekor qilinadi.

78. Apellyatsiya Tashkiliy guruh maxsus tayinlangan Apellyatsiya hay’atiga tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ushbu jarayonga boshqa shaxslarning aralashishi taqiqlanadi.

79. Apellyatsiya hay’atiga 5 nafar a’zo va 1 nafar kotibdan iborat bo‘ladi. Apellyatsiya hay’atiga kotibi ovoz berish va muhokamada qatnashish huquqiga ega emas. U Apellyatsiya hay’atiga qarorining rasmiylashtirilishiga yordam beradi.

80. Apellyatsiya hay’atiga ochiq ovoz berish yo‘li orqali qaror qabul qiladi. Bunda oddiy ko‘pchilik ovoz qoidasi amal qiladi. Ya’ni 5 kishidan 3 kishi “ha”, 2 kishi “yo‘q” deb ovoz bergen bo‘lsa, unda o‘sha javob qabul qilinadi yoki aksincha. Apellyatsiya hay’atiga a’zolari betaraf qolishi mumkin emas.

81. Javobni to‘g‘ri deb hisoblash bo‘yicha apellyatsiya kelib tushmagan bo‘lsa ham, Apellyatsiya hay’atiga xuddi shu savol bo‘yicha berilgan boshqa apellyatsiya natijasida jamoalarga ball yozishi mumkin.

82. Apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqish jarayonida aniqlashtirish uchun internet vositalari yoki boshqa manbalardan foydalanish mumkin.

10-bob. Intellektual haftalik ishtirokchilarining odob-axloq qoidalari

83. Intellektual haftalik turnirlari davomida ishtirokchilarning o‘yin jarayoniga xalaqit qiladigan xatti-harakatlar (o‘rnidan turish, raqib yoki o‘z jamoasining boshqa a’zolari bilan suhbatlashish, so‘kinish, raqib jamoa, ishtirokchi va tashkilotchilarga hurmatsizlik qilish va h.k.) qilishi taqiqlanadi. Bunday holatda ishtirokchi yoki uning jamoasi turnirdan chetlantirilishi yoki ishtirokchi jamoasi 1 balldan 3 ballgacha jarima tariqasida jazolanishi mumkin.

84. Ishtirokchilar turnirlar davomida savollarga javob topish maqsadida qo‘srimcha manbalardan (telefon, gadget, planshet, shpargalka va h.k.) yoki o‘yin jarayoniga aloqador bo‘limgan boshqa ishtirokchilar yordamidan foydalanishi taqiqlanadi. Turnir tashkilotchilari tomonidan shunday holat aniqlanganda jamoa yoki ishtirokchi turnirdan chetlatiladi va to‘plagan ballari bekor qilinadi.

85. Savol o‘qilgach, ishtirokchilarga tomoshabinlar tomonidan javob variantlarini aytilishi qat’iyan taqiqlanadi. Turnir tashkilotchilari tomonidan

shunday holat aniqlanganda tomoshabin turnirdan chetlatiladi. Boshlovchi tomonidan savol almashtiriladi.

11-bob. Yakuniy qoidalar

86. Intellektual haftalik davomida mazkur tartibda nazarda tutilmagan holatlar yuz bersa, bunday holatlar Intellektual haftalikni o‘tkazish bo‘yicha Tashkiliy guruh tomonidan ijtimoiyadolat nuqtai nazaridan hal etiladi.

**Intellektual haftalikda ishtirok etish uchun
ARIZA**

*oliy ta’lim muassasasining terma jamoasiga Intellektual haftalikda ishtirok etishi uchun
quyidagi ishtirokchilarning qatnashishiga ruxsat berishingizni so‘raymiz.*

Jamoa tarkibi:

T/r	F.I.Sh.	Kim sifatida qatnashadi	Talaba tahsil olayotgan yo‘nalish va kurs	Zakovatklubi.uz platformasidagi shaxsiy ID raqami
1		Jamoa sardori		
2		Jamoa a’zosi		
3		Jamoa a’zosi		
4		Jamoa a’zosi		
5		Jamoa a’zosi		
6		Jamoa a’zosi		
7		Jamoaning zaxira a’zosi		
8		Jamoa murabbiyi	Tel:	

_____ (oliy ta’lim muassasasining nomi) _____ (muhr va imzo o‘rnii) rektori _____